



PRIMQUL QODIROVNING “YULDUZLI TUNLAR” ROMANIDAGI ANTROPONIMLARNING TARIXIY ILDIZI VA RAMZIYLIK XUSUSIYATLARI

Osiyo Texnologiyalar universiteti

Sottorova Nilufar Tura qizi

nilufarsottorova94@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada “Yulduzli tunlar” asaridagi antroponimlarning asar badiiyligini oshirishdagi o’rni, ularning tarixiy ildizi, ramziylik xususiyatlari yoritilgan. Ismlarning personajlar xarakterini ochib berishdagi roli, ularning ijobiy va salbiy ma’nolari ko’rib chiqiladi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy va semantik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar asarning g’oyaviy mazmunini chuqurroq anglashga va o’sha davr ruhiyatini his qilishga yordam beradi. Maqola adabiyotshunoslar, tilshunoslar, tarixchilar va “Yulduzli tunlar” romani bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar uchun foydalidir.

Kalit so’zlar: Primqul Qodirov, “Yulduzli tunlar”, Onomastika, antroponim, Bobur, Tohir, Xonzodabegim.

O’zbek adabiyotining yirik nomoyondasi Primqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani o’zbek xalqining boy tarixi, ma’daniyati va ma’naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim tarixiy asarlardan biridir. Romanda tarixiy shaxslar, urf-odatlar va an’analar tasviri orqali o’sha davrning ruhiyati, odamlarning dunyoqarashi va hayot tarzi yorqin aks etgan.

Asardagi antroponimlar ya’ni kishi ismlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ismlar nafaqat personajlarni nomlash vositasi, balki ularning harakteri, ijtimoiy kelib chiqishi, madaniy va diniy e’tiqodlari haqida xam ma’lumot beradi. Ismlarning



tarixiy ildizi va ramziylik xususiyatlarini o'rganish orqali romanning g'oyaviy mazmunini chuqurroq anglash, o'sha davrning tarixiy-madaniy muhitini his qilish mumkin.

Bugungi kunda milliy o'zlikni anglash, tarixga hurmat bilan qarash va madaniy merosni asrab-avaylash masalalri dolzarb ahamiyatga ega. Shunday ekan, "Yulduzli tunlar" romanidagi antroponimlarning tadqiqi o'zbek tilshunosligi, adabiyotshunosli va madaniyatshunosligi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot o'zbek adabiyotining o'ziga xos xususiyatlarini, xalqning tarixiy xotirasini va madaniy qadriyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, uning natijalari adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarix va madaniyat sohalarida faoliyat yuritayotgan mutaxasislarga, shuningdek, o'zbek adabiyoti bilan qiziquvchi barcha kitobxonlarga foydalidir.

Bundan tashqari, antroponimika sohasidagi tadqiqotlar o'zbek ismlarining tarixiy kelib chiqishini, ularning ma'naviy va madaniy o'zgarishlarini kuzatish imkonini beradi. Bu esa o'zbek tilining leksik boyligini, xalqlarning madaniy merosini va tarixiy xotirasini saqlashga xizmat qiladi¹.

"Yulduzli tunlar" asarida Zaxiriddin Muhammad Boburning otasidan erta ayrilishi va taxtga chiqishi, Temuriylarning ichki ziddiyatlari va bu bosh-boshdoqlik oqibatidagi Shayboniyxonlar va shunga o'xshash tashqi kuchlarning bostirib kelishi voqealari aks etgan. Asar voqealari Boburning Hindistonni egallashi va Boburiylar imperiyasiga asos solishi bilan yakunlanadi.

Quyida asardagi antroponimlar bilan tanishamiz. Asarning bosh qahramoni Bobur hisoblanadi.

Bobur ismi fors-tojik tilidan olingan bo'lib, yo'lbars, she'r degan ma'nolarni anglatadi. Bu ism kuch-qudrat, jasorat, shijoat kabi ma'nolarni bildiradi².



Bobur ismining ya'na bir ma'nosi qo'lga kiritilgan, zabt etilgan degan ma'nolarni xam anglatadi. Bu ma'no Boburning Hindistonga qilgan yurishlari va u yerda o'z davlatini barpo etganligi bilan bog'liq³.

Bobur ismi o'zbek xalqi uchun milliy g'urur timsoli hisoblanadi. Bobur buyuk sarkarda, davlat arbobi, shoir va yozuvchi sifatida o'zbek xalqi xotirasida o'chmas iz qoldirgan.

Tohir ismi arab tilidan olingan bo'liib, pok,toza degan ma'nolarni anglatadi. Bu ism Tohirning oqko'ngil sadoqatli va halol inson ekanligini ifodalaydi.

Romanda Tohir ismi uning pokligini, sadoqatini va Boburga bo'lgan muhabbatini ramziy ma'noda aks ettiradi. Tohir obrazi romanning g'oyaviy mazmunini boyitadi va o'quvchilarda yaxshi taassurot qoldiradi. Asar qahramonlaridan ya'na biri Xonzodabegimdir. Xonzodabegim ismi 3 qismdan iborat.

Xon so'zi- turkiycha hukmdor, podshoh, amir degan ma'nolarni anglatadi.

Zoda-fors-tojikcha tug'ilgan, nasldan bo'lgan degan ma'nolarni bildiradi.

Begim esa-turkiy tillarda bekning ayoli xonim degan ma'nolarni bildiradi. Shunday qilib, Xonzodabegim ismi xon nasldan bo'lgan bek ayoli, hukmdor oilasiga mansub xonim degan ma'nolarni anglatadi⁴. Bu ism o'z egasining yuqori ijtimoiy mavqeini, nasl-nasabini va zodagonligini ko'rsatadi.

Xonzodabegim o'zining donoligi aql-zakovati va maslahatlari bilan el-yurtga foyda keltiradigan ayol sifatida namoyon bo'ladi. Xonzodabegim obrazi faqatgina ijobiy xislatlarni o'zida mujassam etgan emas. Uning qalbida ham ichki kurashlar, ziddiyatlar mavjud. Bu orqali inson tabiatining murakkabligi, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurashning ramziy ma'nosi ifodalanadi. Bu ramziy ma'nolarni xar bir

1.Nazarova.N O'zbek tilida antroponimlarning lisoniy tadqiqi International journal// of Education P 2023

2.O'zbek tilining izohli lug'ati 1-jild Toshkent 2022

3.Sattorov.G'.H O'zbek iosmlarining turkiy qatlami N.D.A Toshkent 1994 B 3-10



o‘quvchi o‘zicha talqin qilishi xam mumkin. Adabiy obrazning ramziyligi ko‘p qirrali bo‘lib uni turli nuqtai nazardan o‘rganish mumkin.

“Yulduzli tunlar” romanidagi antroponimlar asarning badiiy va tarixiy qadrini belgilovchi muhim komponentlardir. Kishi ismlari asarning mazmuniy qatlamini boyitadi, tarixiy voqealarni jonli tasavvur qilishga yordam beradi.

Yuqoridagi mulohazalarga asoslanib romandagi antroponimlarning tarixiy ildizi va ramziylik xususiyatlarini o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega deyish mumkin. Ushbu tadqiqot o‘zbek adabiyoti, tilshunosligiga o‘z hissasini qo‘shadi va o‘zbek xalqining madaniy merosini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Bundan tashqari, antroponimika sohasidagi tadqiqotlar o‘zbek ismlarining tarixiy evolyutsiyasini, ularning ma’naviy va madaniy o‘zgarishlarini kuzatish imkonini beradi. Bu esa o‘zbek tilining leksik boyligini, xalqning ma’daniy merosini va tarixiy xotirasini saqlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbek tilining izoxli lug‘ati 6 jild Toshkent-2022. B 100-160-296
2. Nazarova.N. O‘zbek tilida antroponimlarning lisoniy tadqiqi//international journal of Education, P. 2023.
3. Adaniyazova.D. Badiiy matnda onomastik birliklar lingvo poyetikasi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2017 B 24
4. Sattorov.G‘.N O‘zbek ismlarining turkiy qatlami N.D.A Toshkent-1994 B 3-10
5. O‘zbek ismlari ma’nosi A.E.Begmatov Toshkent-2020 B 402
6. Primqul Qodirov “Yulduzli tunlar” Toshkent-1996

4.O‘zbek tilining izohli lug‘ati 5-jild Toshkent-2022

5.E.Begmatov O‘zbek ismlari ma’nosi T-2020 B-402